

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TO‘RAYEV FARXOD RUSTAMOVICH

**YUQORI MALAKALI DZYUDOCHILARNING YILLIK
TAYYORGARLIK SIKLLARI YUKLAMALARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

To‘rayev Farxod Rustamovich

Yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik sikllari yuklamalarini optimallashtirish.....3

Тураев Фарход Рустамович

Оптимизация нагрузок годовых циклов подготовки высококвалифицированных дзюдоистов29

To‘rayev Farxod Rustamovich

Optimizing the training load in annual preparation cycles for highly skilled judokas57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TO‘RAYEV FARXOD RUSTAMOVICH

**YUQORI MALAKALI DZYUDOCHILARNING YILLIK
TAYYORGARLIK SIKLLARI YUKLAMALARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/Ped.10499 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Murod Arslanovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Korobeynikov Georgiy Valerovich
biologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Farrux Shavkatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti DSc.03/30.2019.Ped.28.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), dotsent

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik sikllarini ilmiy asosda tashkil etish va optimallashtirish sport nazariyasi hamda amaliyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro miqyosda dzyudo sportining keskin rivojlanishi, Olimpiya, Paralimpiya, Jahon chempionati, Grand Slam va boshqa yirik turnirlarda raqobatning keskinlashuvi murabbiylar va ilmiy xodimlardan mashg‘ulot jarayonlarini aniq ilmiy asosda rejalashtirish, ko‘p yillik tayyorgarlikni puxta tuzish hamda sportchining yil davomida barqaror yuqori natija ko‘rsatishini ta‘minlashni talab qilmoqda. Bu jarayonda mikro-, mezo- va makrosikllar bo‘yicha yuklamalarni optimal taqsimlash, jismoniy sifatlar - kuch, chidamlilik, tezkorlik va chaqqonlikni uyg‘un rivojlantirish, shuningdek musobaqa oldi hamda musobaqa davrida funksional holatni nazorat qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon dzyudosi sportga ilmiy yondashuv asosida yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik sikllarini ilmiy asosda tashkil etish va optimallashtirish sport nazariyasi hamda amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda xalqaro musobaqalarda raqobatning kuchayishi, yirik turnirlar doirasida yuqori natijalarga erishish talablari mutaxassislar va murabbiylardan mashg‘ulot jarayonlarini yanada puxta rejalashtirishni, ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichini ilmiy asosda tuzishni hamda sportchining yil davomida barqaror yuqori natijalarini ta‘minlashni talab qilmoqda. Shu jarayonda mikro-, mezo- va makrosikllar kesimida yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash, sportchining kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini uyg‘un rivojlantirish, shuningdek musobaqa oldi va musobaqa davrida organizmning funksional holatini doimiy nazorat qilish ilmiy-uslubiy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur yondashuv dzyudochilarni yuqori darajadagi musobaqalarga sifatli tayyorlash, jarohatlar xavfini kamaytirish, mashg‘ulot samaradorligini oshirish va sport natijalarini uzoq muddatli istiqbolda barqarorlashtirish bugungi kunning dolzarb va amaliy yechimni talab etuvchi muammolari yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda dzyudo sport turiga iqtidorli sportchilarni izlab topish, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Dzyudoning olimpiya sport turi sifatida ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta‘minlash”¹ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirgi sport amaliyotida ko‘p yillik tayyorgarlik tizimini takomillashtirish, musobaqa faoliyatidagi natijadorlikni oshirish va o‘quv-mashg‘ulot jarayonini bellashuv

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-son “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

talablariga moslashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa mashg'ulotlarga zamonaviy vosita va uslublarni joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, o'smir dzyudochilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish va kuch hamda tezkor-kuch sifatlarini takomillashtirish muammolari hali yetarlicha o'rganilmagani soha olimlari oldida muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 20-iyundagi PQ-286-son "Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-son "2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarorlari hamda sohadagi oid bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganligi darajasi. Respublikamizda dzyudochilarning tayyorgarlik turlarini takomillashtirish, musobaqa faoliyatini tahlil etish asosida tayyorgarlik jarayonining rejalarini ishlab chiqish, nazariya va amaliyotni uzviylikini taminlash hamda mashg'ulot yuklamasidan keyingi tiklanish faoliyatini samarali yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha V.A.Kim, A.K.Ataev, L.P.Yugay, N.N.Azizov, R.D.Xalmuxamedov, Sh.S.Mirzanov, R.S.Salomov, I.B.Aliyev, O.J.Dadaboev, F.Sh.Axmedov, Sh.Sh.Gaziyev² va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari yetakchi mutaxassislar tomonidan yakkakurash sport turlarida maqsadli rejalashtirish, jismoniy

2 Kim V.A. Контратаки в дзюдо: методы исследования и проблемы обучения». Монография. Т., 2003. -188 с.; Атаев А.К. Ёш-ўсмирларга ўзбек курашини ўргатиш услубиёти. Т., 2005. - 146 б.; Югай Л.П. Основы дзюдо. Т., 2005. - 133 с.; Азизов Н.Н. Малакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақаолди тайёргарлигини шакллантириш. Фан номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2007. - 143 б.; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев на этапах годичного цикла. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Т., 2009.- 300 с.; Мирзанов Ш.С. Методика силовой подготовки юных белбогли курашистов., Ж.: "Фан-спортга". 2014., № 3. с 22-35; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyyati. II-jild. Darslik. – Т., 2015. – 287 б.; Алиев И.Б. Кураш билан шуғулланувчи талаба спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари // Педагогика фанлари номзоди: дисс...автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2012.–Б. 19-28.; Дадабоев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлик концепцияси. Фан доктори (DSc) дисс... Ч.: 2021. – 348 б., Ахмедов Ф.Ш. Малакали дзюдочилар беллашув фаолиятини ҳисобга олган ҳолда мусобақа имкониятини ошириш. (PhD) Автореферат., Ч., 2022. – 26 б.; Gaziyev Sh.Sh. научно-теоретические основы системы многолетней подготовки высококвалифицированных самбистов. Фан доктори (DSc) дисс... Ч.: 2024. – 264 б.;

qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish, tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish, kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorligi, ko'p yillik tayyorgarlik tizimida malakali dzyudochilarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, texnik-taktik tayyorgarligini tizimli yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha L.P.Matveev, A.A.Karelin, V.F.Boyko, V.N.Platonov, G.S.Tumanyan, Yu.V.Verxoshanskiy, J.K.Xolodov, V.M.Zasiorskiy³ va boshqalarning tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

O'z vazn og'irligidan kelib chiqib kuch va tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning anatomik xususiyatlari, to'g'ri ovqatlanish, mushaklarni rivojlantirish, sport ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda sport toifasiga qarab chidamlilik va kuch sifatlarini rivojlantirish zamonaviy vosita va usullar orqali dzyudochilarning chidamlilik ko'rsatkichlarini boholash bo'yicha P.Azevedo, A.Drigo, M.Carvalho, J.Oliveira, B.Stewart, B.Contreras, D.Bagchi, S.Nair, K.Chandan va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dzyudochilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishga oid tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, malakali sportchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Jumladan, jangovar holatlarda qaror qabul qilish tezligi, vaziyatga mos taktika tanlashi va taktik harakatlarning uyg'unligini shakllantirishga oid izlanishlar tizimli tarzda olib borilmagan. Bu esa malakali dzyudochilarni taktik tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I/1 "Malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" ilmiy tadqiqotlari yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirish orqali musobaqa natijalarini oshirishdan iborat.

³ Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999. – 316 с., Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. Монография. //Новосибирск, 2002. – 480 с.; Бойко В.Ф., Данько Г.В. Физическая подготовка борцов. Киев, Олимпийская литература, 2004. – С. 150-158.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004. - 808 с., Туманян Г.С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов: Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр "Академия", 2006.–591 с. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2007. - 236 с., Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2008. – 204 с. Зацюрский В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания / М: Спорт, 2019 – 200 с.;

³ Azevedo P.H., Drigo A.J., Carvalho M.C., Oliveira J.C., Nunes J.E., Baldissera V., et al. Determination of judo endurance performance using the uchi-komi technique and an adapted lactate minimum test. J. Sports Sci. Med. 2007. - 6, pp. 10–14.; Stewart B. Medicine Ball Workouts. – USA, 2013. - 105 p.; Contreras B. Bodyweight Strength Training Anatomy. / пер. с англ. – изд.«Попурри», Минск: 2015. С. 200-224., Bagchi D., Nair S., Chandan K. Nutrition and enhanced sports performance: muscle building, endurance, and strength. – Elsevier, 2019 – 820 p.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi jismoniy tayyorgarligi oshirish orqali, texnik-taktik harakatlarga yaqinlashtiruvchi mashqlarda dasturini ishlab chiqish;

yuqori malakali dzyudochilarning makrosikllardagi tayyorgarlik mashg'ulot jarayonlarini maxsus tayyorgarlik mashqlar dasturini tuzish;

yuqori malakali dzyudochilarning vazn toifalari inobatga olgan holda sikllardagi mashg'ulot jarayonlarining optimal rejasini ishlab chiqish;

yuqori malakali dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligi oshirish orqali musobaqa samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning obykti sifatida olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda dzyudo federatsiyasida shug'ullanuvchi malakali dzyudochilarning o'quv-mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini yuqori malakali dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uslubiyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotda ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, ilg'or tajribalarni tahlil va sintez qilish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik kabi uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi mashg'ulot jarayonlari samarali tashkil etish maqsadida texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikka ega mashqlardan foydalanish hisobiga texnik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

yuqori malakali dzyudochilarning makrosikllardagi tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirishga qaratilgan, kalendar rejalarda belgilangan musobaqa raqobatdoshligini inobatga olgan holda davrlarda funksional barqarorlikni ta'minlovchi maxsus tayyorgarlik mashqlar dasturidan foydalanish hisobiga murakkab texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

yuqori malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari, texnik imkoniyatlarini tahlil qilgan holda musobaqa faoliyatida yuqori samaradorlik ko'rsatuvchi klasifikatsiyasida belgilangan texnik-taktik harakatlarni amaliy mashg'ulotlarga moslashtirish hisobiga hujum harakatlarini samarali yakunlash darajasi oshirilgan;

yuqori malakali dzyudochilarning musobaqa faoliyatida taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida tik va parter holatidagi bajariladigan taktik harakatlarni mezzo-, mikro sikllardagi mashg'ulot jarayonlari yuklamalarini ratsion taqsimlash orqali musobaqa faoliyatida murakkab taktik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi mashg'ulot jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun musobaqa sharoitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan va

yuqori intensivlikka ega mashqlardan foydalanishga asoslangan maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturi ishlab chiqilgan.

makrosikllardagi tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirishga qaratilgan, kalendar rejalarda belgilangan musobaqa raqobatbardoshligini inobatga olgan holda davrlarda funksional barqarorlikni ta'minlaydigan maxsus tayyorgarlik mashqlar dasturi ishlab chiqilib, murakkab texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirishga erishilgan.

yuqori malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari hamda texnik imkoniyatlarini tahlil qilish asosida musobaqa faoliyatida yuqori samaradorlik ko'rsatadigan texnik-taktik harakatlar klasifikatsiyasi ishlab chiqilib, amaliy mashg'ulot jarayoniga moslashtirilgan holda hujum harakatlarini samarali yakunlash darajasi oshirilgan.

Mazkur yondashuvlar yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish, ularning texnik-taktik harakatlari sifatini oshirish hamda musobaqa faoliyatidagi barqaror natijadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchli, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning xulosalari bilan asoslanadi, tajriba ishlarining reprezentativligi va olingan natijalarning matematik statistika usuli bilan qayta ishlanganligi bilan kafolatlanadi. Natijalar kompyuter texnologiyalari yordamida to'g'ri qayta ishlangan. Dissertasiyada keltirilgan taklif va amaliy tavsiyalarning ishonchliligi malakali dzyudochilarni texnik-taktik tayyorgarligi nazariyasi va metodikasining konseptual muammolarini hal qilish zarurati bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. shundan iboratki, yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi mashg'ulot jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvni asoslab berdi. Xususan, texnik-taktik harakatlarni bajarishda musobaqa sharoitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan va yuqori intensivlikdagi mashqlardan foydalanish orqali maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga ilmiy asos yaratildi. Shuningdek, makrosikllar doirasida tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirish, kalendar rejalarda belgilangan musobaqa raqobatbardoshligini hisobga olish va funksional barqarorlikni ta'minlovchi maxsus mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim murakkab texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlarini kengaytirish, hamda vazn toifalariga mos holda dzyudochilarning individual xususiyatlarini tahlil qilish asosida samarali hujum va qarshi hujum harakatlarini shakllantirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan mashg'ulot tizimi sportchilarning kuch, tezkorlik va texnik-taktik faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. U sport maktablari va ixtisoslashgan sport muassasalarida dzyudochilarning individual

xususiyatlariga mos ravishda qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy-uslubiy tavsiyalar majmuasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirish orqali musobaqa natijalarini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik davridagi mashg'ulot jarayonlari samarali tashkil etish maqsadida texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikka ega mashqlardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Dzyudo Federasiyasi bazasida shug'ullanuvchi yoshlar terma jamoasi dzyudochilarning o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 23-iyuldagi 02-16/7836-son ma'lumotnoma). Natijasida, jismoniy tayyorgarligini 13-15,0 % ga oshirishga erishilgan;

yuqori malakali dzyudochilarning makrosikllardagi tayyorgarlik jarayonlarini optimal rejalashtirishga qaratilgan, kalendar rejalarda belgilangan musobaqa raqobatdoshligini inobatga olgan holda davrlarda funksional barqarorlikni ta'minlovchi maxsus tayyorgarlik mashqlar dasturi bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 23-iyuldagi 02-16/7836-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnik-taktik tayyorgarligi 12,3 % yaxshilangan;

yuqori malakali dzyudochilarning vazn toifalari bo'yicha individual xususiyatlari, texnik imkoniyatlarini tahlil qilgan holda musobaqa faoliyatida yuqori samaradorlik ko'rsatuvchi klasifikatsiyasida belgilan texnik-taktik harakatlarni amaliy mashg'ulotlarga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 23-iyuldagi 02-16/7836-son ma'lumotnomasi). Natijada, hujum harakatlarini bajarish 15,7 % ga o'sgan;

yuqori malakali dzyudochilarning musobaqa faoliyatida taktik harakatlar samaradorligini oshirish maqsadida tik va parter holatidagi bajariladigan taktik harakatlarni mezzo-, mikro sikllardagi mashg'ulot jarayonlari yuklamalarini ratsion taqsimlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash mazkazi o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 23-iyuldagi 02-16/7836-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston chempionati, kubogi va xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlar egallangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishida kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi, 126 betni tashkil etib, 14 ta jadval, 3 ta rasm, ilovalar va joriy etish dalolatnomalarni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik tizimida ilmiy-nazariy yondashuvlar bo'yicha adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida yillik tayyorgarlik jarayonining zamonaviy modeli chuqur ochib berilgan: umumiy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, musobaqa va tiklanish davrlari o'zaro uzviy bog'liq holda tavsiflangan. Jahon tajribasi - xususan Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va Fransiya maktablarining ilg'or tajribalari - O'zbekiston amaliyotida qo'llash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar sifatida keltirilgan. Shu asosda dzyudochilarning jismoniy, texnik-taktik, psixologik va funksional tayyorgarligini individuallashtirish, mashg'ulot yuklamalarini siklik tarzda rejalashtirish, zamonaviy nazorat va monitoring uslublarini qo'llash zarurligi isbotlangan.

Metodologik jihatdan, texnik va taktik tayyorgarlikni o'zaro uyg'unlashtirish, qaror qabul qilish tezligini oshirish, musobaqa sharoitida raqib harakatlariga moslashish, yuqori intensivlikka ega mashqlar orqali maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar ilmiy-nazariy asoslangan. Shu bilan birga, psixologik tayyorgarlik, stressni boshqarish va motivatsiya jarayonlarining dzyudochining sport natijalariga bevosita ta'siri alohida e'tirof etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuqori malakali dzyudochilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik test, antropometriya, pedagogik tajriba, matematik statistik tahlil va tadqiqot usullaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan.

Pedagogik tadqiqotlar 3 bosqichda olib borildi:

Birinchi – analitik va metodik bosqich (2021-2022-yillar) – mahalliy va chet-el adabiyotlarida mazkur mavzu doirasidagi ilmiy muammolarning holatini tushunish, mavzuning rivojlanish darajasini o‘rganish, tadqiqot dasturlarini belgilash, ishchi farazini yaratish masalalariga bag‘ishlandi.

Ikkinchi – loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichi (2022-2024-yillar) – yuqori malakali dzyudochilarning texnik-taktik harakatlarni bajarish uchun maksimal yaqinlashtirilgan, yuqori intensivlikka ega mashqlar majmuasi, kalendar rejalarda belgilangan musobaqa raqobatdoshligini inobatga olgan holda davrlarda funksional barqarorlikni ta‘minlovchi maxsus tayyorgarlik mashqlar hamda musobaqa faoliyatida yuqori samaradorlik ko‘rsatuvchi klasifikatsiyasida belgilan texnik-taktik harakatlarni amaliy mashg‘ulotlarga moslashtirish dasturlari ishlab chiqish va o‘quv mashq mashg‘ulot bosqichida amalda tadbqiq etish ishlari amalga oshirildi.

Uchinchi nazorat va tekshirish bosqichi (2024-2025-yillar) - olingan tajriba natijalar tahlil qilinib ishlab chiqilgan va tadqiqot natijalarining formulasini shakllantirish, yillik tayyorgarlik sikllari natijalari va ishlab chiqilgan dastur va majmualar hamda musobaqalarda erishilgan natijalar, mezon va tizim ko‘rsatkichlariga mos ravishda baholandi.

Ishlab chiqilgan uslub samaradorligi va olingan natijalarning amaliyotga tatbqiq etilishi o‘rganildi. Tajriba davomida olingan ma‘lumotlar tizimlashtirildi va tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **“Malakali dzyuchilarning silklardagi tayyorgarlik yuklamalarini optimallashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida yuqori malakali dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi tavsifini berishda yuqori malakali dzyudochilar o‘z sport faoliyatlarida mukammal texnika, taktik mahorat va a‘lo darajadagi jismoniy tayyorgarlikni uyg‘unlashtira olgan sportchilardir. Ularning jismoniy tayyorgarligi nafaqat kuchli umumiy rivojlanganlik, balki dzyudo sport turiga xos maxsus jismoniy sifatlarning yuqori darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotlarni tashkil qilishdan oldingi terma jamoa sportchisi va bosh murabbiy sifatidagi amaliyotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi asosiy jihatlar orqali aniqlash maqsadga muvofiq.

Maksimal kuchning namoyon bo‘lishida yuqori malakali dzyudochilar tatamida raqibni ushlab uchun kurashish, ushlagan holda harakatlanishi, raqibni muvozanatdan chiqarish va tashlash uchun zarur bo‘lgan maksimal kuch ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladilar. Butun tana mushaklarining kuch darajasi juda muhimdir; portlovchi kuchning namoyon bo‘lishi usulni bellashuv paytida uzluksiz bajarish va kombinatsiyalarni bajarishda qo‘llaniladi. Yuqori malakali dzyudochilarda qisqa vaqt ichida maksimal kuchni namoyon etish qobiliyati (portlovchi kuch) yaxshi rivojlangan bo‘ladi; chidamlilik yuqori malakali sportchilar uzoq davom etadigan kurashlar davomida ham yuqori intensivlikni saqlab qolish qobiliyatiga ega. Ularning yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari

musobaqa jarayonidagi kuchli yuklamalarga chidamli bo‘lib, tez tiklanish xususiyatiga ega; tezkorlik va chaqqonlik esa yuqori darajadagi dzyudochilarning harakatlari chaqqon, aniqligi yuqori va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ular har bir harakatda raqibning qaysi texnik usulni bajarishini sezib, tez va samarali javob qaytarishga qodirdirlar.

Dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda maxsus testlar va o‘lchovlardan foydalanildi.

Jismoniy tayyorgarlik: shtangani yotgan holda ko‘tarish, o‘tirib turish, shtangani yerdan ko‘tarish, press, suspenziya, siltab ko‘tarish, arqon, yugurish, rezina bilan yelkadan uloqtirish, ikki yengdan uloqtirish, uzunlikka sakrash, qo‘lda sakrash, turnik, brusya; kuch chidamliligi: shtangani yotgan holda ko‘tarish, o‘tirib turish, press, suspenziya, grif, uloqtirish oldinga, uloqtirish orqaga, qo‘lni bukub yozish to‘lqin bilan, zal bo‘ylab sakrash, zal bo‘ylab qo‘lda sakrash; portlovchi tezlik: uchikomi oldinga, uchikomi orqaga, uchikomi ikki tarafga, uloqtirish oldinga, uloqtirish orqaga, uloqtirish ikki tarafga; portlovchi kuch: shtangani yotgan holda ko‘tarish, turnik, brusya, press, grifin turgan holda ko‘tarib tashlash, shtangani turgan holda ko‘krakdan itarish, tizzalarni ko‘tarib sakrash.

Yuqori malakali dzyudochilarning o‘rtacha jismoniy ko‘rsatkichlarini yillik tayyorgarlik tsiklining boshlash va oshirishdan oldin dzyudochilarning jismoniy holatini aniqlash maqsadida quyidagi tekshiruv testlari o‘tkazildi. Unga ko‘ra, dzyudochilarning 7 ta vazn toifasi mavjud, ushbu vazn toifalari sportchilarning jismoniy holati va texnikasi yaqinligini inobatka olib 4 ta guruhga ajratdik (60-66 kg, 73-81 kg, 90-100 kg va +100 kg), (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yugurish testlari

T/r	Vazn toifa	60m/soniya	100m/soniya	1km/daqiqqa	10km/daqiqqa
1	60-66	9	13	3,34	47,15
2	73-81	9,3	12,3	4,15	45,05
3	90-100	9,5	12,5	3,45	53,4
4	+100	10	13	3,4	57,05

Kuch chidamliligi testi

T/r	Vazn toifa	Shtangani yotgan holda ko‘tarish		O‘tirib turish		Press		Suspenziya		Grif	
		kg	son	kg	son	kg	son	kg	son	kg	son
1	60-66	30	40	30	40	10	50	10	50	15	50
2	73-81	40	35	40	40	15	50	15	50	15	50
3	90-100	50	40	45	35	20	40	20	40	20	40
4	+100	50	40	50	35	28	30	25	35	25	40


Izoh: Yugurish, kuch chidamlilik mashqlar majmuasi namuna sifatida taqdim etilgan bo‘lib jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, maxsus chidamlilik, portlovchi tezlik, portlovchi kuch, maxsus portlovchi tezlik kabi mashqlar dissertatsiya ishida to‘liq berilgan.

Yillik rejalashtirishning asosiy maqsadi-dzyudo sportchisining har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun yillik mashg‘ulot jarayonida turli bosqichlar va yo‘nalishlar belgilanishi kerak. Bular orasida jismoniy tayyorgarlik, texnikaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish, taktikni oshirish, shuningdek, psixologik tayyorgarlik ham muhim o‘rin tutadi. Har bir bosqichda sportchining o‘z imkoniyatlariga qarab, mashg‘ulotlar intensivligi va maqsadlari o‘zgartiriladi.

Dzyudochilarning yil davomida tayyorgarligini oshirish

Dzyudochilarning yil davomida tayyorgarlik darajasini oshirish uchun, yillik reja sportchining individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. sportchining yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, musobaqalardagi tajribasi va texnik darajasi uning yillik rejasini tuzishda asosiy omillardan biridir. Har bir sportchi uchun reja shaxsiylashtirilgan holda ishlab chiqilishi zarur, chunki bitta umumiy yondashuv barcha sportchilar uchun mos kelmaydi.

Yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik ko‘rish mashg‘ulotlar rejasini va XDFning yillik taqvim rejasiga asosan ishtirok qilish ko‘zda tutilgan musobaqalar ro‘yxati (1-rasmga qarang)



1-rasm: Yuqori malakali dzyudochilarning yillik tayyorgarlik davri strukturasi va mazmuni

Dzyudochilarni muvaffaqiyatli tayyorlashning asosiy jihatlaridan biri-bu ularning texnik va taktik bilimlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirishdir.

Mashg'ulot dasturi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi, balki taktika va strategiyani o'rgatishga ham katta e'tibor qaratiladi. Dzyudochilarga turli xil vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rgatish, raqibning harakatlarini oldindan oldindan ko'ra bilish, hujum va himoya taktikalarini samarali qo'llashga yordam beradi. Ushbu masalani hal qilish maqsadida yuqori malakali dzyuchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishimizda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi dzyudochining kuchini, chidamliligini, tezligini va elastikligini oshirishdir. Mashg'ulot dasturi jismoniy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, asosan aerobik va anaerobik mashqlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda dzyudochilar o'zining fiziologik xususiyatlarini yaxshilash va o'z salohiyatini maksimal darajaga keltirish uchun turli xil mashqlarni bajarishadi.

Texnik tayyorgarlik-dzyudochi uchun o'ta muhim bosqichdir. Bu bosqichda dzyudochilar zarur texnikalarni o'rganishadi: tik turgan holatidagi usullar, parter holatidagi usullar, raqib harakatiga teskari harakat, qarshi usullar, ushlarlar. Texnikani mukammal o'rganish, dzyudochilarni bellashuvda turli xil vaziyatlarga mos ravishda javob berishga tayyorlaydi.

Yuqori malakali dzyudochilarni yillik tayyorgarlik davrini nechta musobaqa cho'qqisiga mo'ljallanishiga qarab yuklama taqsimoti farqlanishi mumkin. Masalan, agar yil davomida 2 ta yirik musobaqada yuqori sport formasi ko'rsatilishi rejalashtirilsa (ikki makrosikl), unda har bir musobaqa oldidan yuqoridagi bosqichlar takrorlanadi. Quyida yillik mashg'ulot yuklamasining bosqichlar bo'yicha taxminiy taqsimoti statistik jadval shaklida keltirilgan. Bu taqsimot bir yillik siklni 2 ta asosiy musobaqa cho'qqisiga yo'naltirgan modelga mos ravishda tuzilgan bo'lib, umumiy 1000 soatlik yillik mashg'ulot vaqtining bosqichlar kesimidagi ulushini ko'rsatadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Malakali dzyudochilar yillik mashg'ulot yuklamasining davrlar bo'yicha taqsimoti (2 ta musobaqa cho'qqisi misolida)

Tayyorgarlik davri	Davomiyligi	Mashg'ulot hajmi (soat)	Yillik hajmdagi ulushi
Umumiy tayyorgarlik davri	12 hafta	350 soat	35%
Maxsus tayyorgarlik davri	8 hafta	250 soat	25%
Musobaqaoldi (2 marta × 4 hafta)	8 hafta (2×4)	150 soat	15%
Musobaqa davri (2 marta × 4 hafta)	8 hafta (2×4)	150 soat (musobaqalarni ham o'z ichiga oladi)	15%
O'tish davri (2 marta)	4 hafta (2×2)	100 soat	10%
Jami:	52 hafta	1000 soat	100%

Rejalashtirish bosqichlarida yillik tayyorgarlik jarayoni odatda bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi. Har bir bosqichning o'ziga xos vazifalari va mashg'ulot shakllari mavjud. Quyida malakali dzyudochilar uchun yillik tayyorgarlik davrining asosiy bosqichlari, ularga xos mashg'ulot shakllari va maqsadlar metodik jadval ko'rinishida keltirilgan (3-jadvalga qarang).


3-jadval

Tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha mashg'ulot shakllari va maqsadlari

Bosqich	Mashg'ulot shakllari	Bosqich maqsadlari
Umumiy tayyorgarlik	Umumrivojlantiruvchi jismoniy mashqlar (chidamlilik, kuch, tezlik); umumiy gavda tayanch-motorika mashqlari; dzyudo texnikasining asosiy elementlarini o'rgatish; o'yin va gimnastik mashg'ulotlar.	Sportchining umumiy jismoniy bazasini yaratish, tayanch-qimirlatish apparatini mustahkamlash; umumiy chidamlilik va kuch sifatlarini oshirish; dzyudoning asosiy texnik usullarini o'zlashtirish hamda jarohatlardan saqlovchi tayyorgarlik.
Maxsus tayyorgarlik	Maxsus jismoniy mashqlar (kuch-tezlik mashqlari, grip va tortish mashqlari); texnik-taktik sparringlar (randori, juftlikda texnika takomillashtirish); nazorat sinov mashg'ulotlari.	Sport turiga xos jismoniy sifatlarni rivojlantirish (portlovchan kuch, chaqqonlik, koordinatsiya); dzyudo texnik-taktik mahoratini oshirish, kombinatsiyalar va himoya-hujum usullarini takomillashtirish; sparring orqali musobaqa sharoitiga moslashish.
Musobaqaoldi tayyorgarlik	Nazorat bellashuvlar (test musobaqalar); taktik reja tuzish mashg'ulotlari; yengil vazn tushirish va restitution (tiklovchi) mashqlar; psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari.	Sportchini musobaqa holatiga maksimal yaqinlashtirish va yuqori sport formasiga erishish; musobaqa rejasi va taktikalarni sinovdan o'tkazish; mashg'ulot yuklamasini bosqichma-bosqich kamaytirib (tapering) organizmni musobaqa kuniga tayyor holatga keltirish; ruhiy jihatdan musobaqaga tayyorlash.
Musobaqa davri	Rasmiy musobaqalarda ishtirok etish; musobaqalar oralig'ida saqlab turuvchi qisqa mashg'ulotlar (yengil jismoniy mashqlar, cho'zilish); tiklanish mashg'ulotlari (yengil kardio, massaj).	Musobaqalarda maksimal natijaga erishish va yuqori sport formasini namoyon etish; raqobat sharoitida o'z texnik va taktik uslublarini muvaffaqiyatli qo'llash; musobaqalar oralig'ida sport formasini yo'qotmaslik va tiklanishni tezlashtirish.
O'tish davri (oralig')	Faol dam olish mashg'ulotlari (suzish, o'yin sportlari, yengil yugurish); rehabilitatsiya vositalari (fizioterapiya, massaj); ixtiyoriy jismoniy mashg'ulotlar (past intensivlikda).	Og'ir mavsum yakunida organizmni to'liq tiklash, ortiqcha charchoq va mikrojarohatlarni davolash; ruhan dam olish va kelgusi mavsumga yangicha kuch-g'ayrat bilan kirishish; yengil faollik bilan umumiy jismoniy holatni saqlab turish (detrainingning oldini olish).

Yillik siklning har bir bosqichida yuklama va dam olish nisbatini to'g'ri taqsimlash muhimdir. Umumiy va maxsus tayyorgarlik davrlarida bosqichma-bosqich ortib boruvchi jismoniy va texnik yuklamalar qo'llanilsa, musobaqa oldidan yuklama eng yuqori cho'qqiga chiqadi va musobaqadan so'ng tiklanish bosqichi bilan almashinadi. Bunday siklik yondoshuv sportchilarning sport formasi yil davomidagi pasayish-tiklanish sikllarini optimallashtiradi va jarohatlanish xavfini kamaytiradi. Shuningdek, yil davomida jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik elementlari bir-birini to'ldirgan holda olib boriladi (2-rasmga qarang).

- Umumiy jismoniy tayyorgarlik ■ Maxsus jismoniy tayyorgarlik
- Musobaqa tayyorgarligi ■ Tiklanish



2-rasm: Yuqori malakali dzyudochining yillik tayyorgarlik siklning asosiy davrlari

Yuqori malakali dzyudochilarning tayyorgarlik bosqichlari va texnik-taktik mashg'ulotlar turlari sifatida yuqori darajadagi dzyudochilarni tayyorlash jarayoni yillik reja asosida bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqich sportchilarning jismoniy holati, texnik mahorati va ruhiy tayyorgarligini maqsadli rivojlantirishga qaratilishi muhim bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“Malakali dzyudochilarning ilmiy tadqiqot natijalari, tahliliy ko'rsatkichlari va ularning pedagogik talqini”** deb nomlangan to'rtinchi bobida amalga oshirilgan pedagogik tajribada olingan natijalarning qiyosiy tahlili to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Pedagogik

tadqiqot Respublika olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o‘kazildi. Pedagogik tadqiqotimizda 42 nafar dzyudo sport turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilar saralab olindi va sportchilar yoshi, vazni toifalari, jismoniy va texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlariga bo‘lib olindi.

So‘nggi ikki yilda O‘zbekistonlik sportchilarning yirik xalqaro musobaqalardagi natijalarining tahlili qilib ko‘rsak, O‘zbekiston dzyudochilari so‘nggi ikki yil ichida jahon va Osiyo miqyosidagi yirik musobaqalarda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Quyida 2023–2024 yillar davomida o‘zbekistonlik sportchilar ishtirok etgan asosiy musobaqalardagi natijalarning umumiy ko‘rsatkichi keltirilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

2023–2024-yillarda O‘zbekiston dzyudo jamoasining yirik musobaqalardagi medallar

Musobaqa	Yil	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
Jahom chempionati (Doha)	2023	0	2	2	4
Osiyo o‘yinlari (Xanjou)	2023	3	2	4	9
Jahom chempionati (Abu Dabi)	2024	0	1	1	2
Olimpiya o‘yinlari (Parij)	2024	1	0	2	3

Dzyudochilarning olingan texnik mahorati ko‘rsatkichlari korrelyatsiya tahlili uslubi asosida jismoniy tayyorgarlik ma‘lumotlari bilan taqqoslandi.

Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash quyidagi testlar yordamida o‘tkazildi: shtangani oldinga irg‘itish; yerga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish (klassik push-up); qo‘l va oyoqni gilamga tekkazgan holda oldinga chiqish bilan o‘tirish (visit); qorin mushaklari mashqi (pres); uchikomi – texnika elementlarini takrorlash; blin yordamida aylantirish mashqi (asosiy qismini kuchaytirish); tolqinsimon qo‘llarni bukib yozish (volnisti atjimaniya); arg‘amchida sakrash (skakalka) kabi testlardan foydalanildi (5-jadvalga qarang).

Texnik-taktik mahoratni baholashda quyidagilar amalga oshirildi. O-soto-gari; Obi-otoshi; O-goshi; Uki-goshi; Harai-goshi kabi texnik usullar ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib ishonchlilik darajasi aniqlandi (6-jadvalga qarang).

5-jadval

Yuqori malakali sportchilarining jismoniy tayyorgarligini o'zgarish dinamikasi (n=60)

T/r	Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqot boshida				Tadqiqot oxirida					
			\bar{X}	σ	V%	t	P	\bar{X}	σ	V%	t	P
1	Shtangani siltab ko'tarish (marta)	TG	26,81	3,86	14,38	1,01	>0,05	29,43	4,18	14,21	2,24	>0,05
		NG	25,52	3,87	15,15			26,38	3,98	15,09		
2	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	TG	22,67	2,85	12,58	0,47	>0,05	26,01	2,66	10,25	2,08	>0,05
		NG	23,10	2,57	11,12			24,19	2,56	10,59		
3	Qo'l va oyoqni gilamga tekkan holda oldinga chiqish bilan o'tirish (visit (marta))	TG	21,33	2,51	11,71	1,24	>0,05	24,86	2,94	11,82	1,63	>0,05
		NG	22,48	2,99	13,32			23,29	2,83	12,16		
4	Qorin mushaklari mashqi (pres(marta))	TG	20,33	2,42	11,88	1,61	>0,05	22,01	2,35	10,66	2,39	>0,05
		NG	19,14	2,01	10,49			20,24	2,07	10,23		
5	Uchikomi - texnika elementlarini takrorlash (marta)	TG	31,76	3,82	12,03	0,61	>0,05	35,01	3,62	10,34	2,16	>0,05
		NG	31,01	3,69	11,91			32,28	3,65	11,28		
6	Qo'shimcha og'irlik yordamida aylantirish mashqlari (marta)	TG	21,01	2,57	12,33	0,83	>0,05	24,33	2,06	8,46	1,85	>0,05
		NG	21,76	2,95	13,55			22,76	2,95	12,95		
7	Qoshpoyada qo'llarni bukib yozish (marta)	TG	21,52	3,08	14,29	1,19	>0,05	23,95	2,85	11,92	2,21	>0,05
		NG	20,38	2,67	13,12			21,95	2,58	11,74		
8	Arg'amchida sakrash (skakalka(marta))	TG	33,48	3,56	10,63	0,97	>0,05	38,57	3,56	9,22	2,07	>0,05
		NG	34,76	4,32	12,44			36,11	3,63	10,06		

Izoh: \bar{X} - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'irlik; V% - variatsiya koeffitsienti; t - studentning qiymati; P - ishonchlilik darajasi.

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhi sportchilarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi qayta olindi va ahamiyatlilik darajalari aniqlandi unga ko'ra tajriba guruhi quyidagi natijalarni qayd etdi:

